



O'ZBEK DIALEKTLARIDA MILLIY MADANIYATNI AKS ETTIRUVCHI DIALEKTIZMLAR

Barchinoy Sotliqova

Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va
adabiyotini o'qitish fakultetining 1-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6969038>

ARTICLE INFO

Received: 01st August 2022
Accepted: 03rd August 2022
Online: 05th August 2022

KEY WORDS

Sheva, dialekt hamda ularning o'rganilishi, adabiy til, milliy urf-odatlar, o'zbek marosimlari.

Bugungi kunda mamlakatimizning mustaqillikka erishganiga ham 20 yildan oshdi. Mana shu davr ichida yurtimizda fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya, texnika, iqtisodiyot, siyosat sohalarida mustaqillik tufayli juda katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi va bundan keyin ham ular davom etaveradi. Shu sababli ular adabiy tilimizda ham, shevalarimizda ham o'z ifodasini topmoqda. O'zbek adabiy tili xalq shevalaridan o'ziga kuch oladi, chunki sheva bo'lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo'lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo'lmasa, har qanday adabiy til vaqt o'tishi bilan o'lik tilga aylanadi. Shuning uchun ham shevalar har qanday adabiy tilning asosiy hamda rivojlanish poydevoridir. O'zbek shevalarini o'rganishning ahvoli va kelajagi masalasini o'ylab ko'rish kerak. Agar sal befarqroq bo'lsak, shevalarimizning bugungi dialektal boyligi va betakror nufuzini ilmiy

ABSTRACT

Istiqlol yillariga yetganimizdan so'ng davlatimiz miqyosida dunyo jamoatchiligi lol qoladigan darajada xalq manfaati nuqtayi nazaridan juda ko'p ishlar amalga oshirildi va amalga oshirilmoqda. Ammo ba'zi bir sohalar e'tiborimizdan chetda qolyapti. Mana shunday sohalardan biri, albatta, o'zbek shevashunosligi sanaladi. Bu borada ham olimlarimiz izlanishlar olib borishyapti, shunday bo'lsa-da, bu sohaning hali ochilmagan qirralari ko'p. Shuningdek, ushbu maqola o'zbek milliy madaniyatining dialektlar va adabiy tilda qo'llanilish shakllari hamda ularning hududiy dialektlarda ham farqlanishi xususidadir.

manbalarda saqlab qolishdan ojiz bo'lib qolamiz.

Dialektalogiya rivoji uchun bir qancha olimlarimiz tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, O'zbek dialektologiyasining lingvistik fan sifatida shakllanishida E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borokov, V.V.Reshetov kabi rus turkshunos olimlarining xizmatlari kattadir. E.D.Polivanov shevalarni o'rganishni 20-yillardan boshladi. A.K.Borokovning "Yangi o'zbek alfaviti", "Tasnif masalasi" kabi asarlar o'zbek dialektologiyasi ravnaqiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Rus olimi E.D.Polivanov o'zining "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili" asarida shunday deb yozgan edi: "SSSR da turkiy tillarning birortasi ham o'zbek tili singari shevalararo bu qadar keskin farqlanmaydi. Demak, SSSR dagi birorta turkiy til ham bu qadar dialektal turlilik xususiyatiga ega emas. Bu hol esa birorta



dialektni adabiy tilga asos qilib olish masalasini og'irlashtiradi". So'nggi tadqiqotlar natijasida o'zbek shevalarining ayrim xususiyatlari, bir-birlariga fonetik-morfologik jihatdan yaqinliklari haqida va shu bilan birga bir-birlaridan farq qiladigan dialektal guruhlar haqida tasavvurga ega bo'lindi. Natijada, o'zbek shevalari Sh.I.Zarubin, 14 E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, G'.Olim, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov kabi olimlar tomonidan tasniflashga harakat qilindi. Shu kabi bir qancha samarali ishlar olib borilmoqda, ammo o'zbek milliy madaniyatini aks ettiruvchi dialektizmlar hali o'rganilmagan.

Bilamizki, har bir xalqning o'ziga xos urf-odat, an'ana va marosimlari borki, ular yurtning o'zligini namoyon etadi. O'zbekistonda yashovchi har bir xalq millati, irqi, nasl-nasabining, yosh darajasi bo'lishidan qat'iy nazar marosim va an'analarga hurmat bilan qarashi, o'z urf-odatlarining mushtarakligini e'tirof etishi mustaqillik ne'matidir. Shunday ekan, an'ana va marosimlarni barhayotligini ta'minlash, ularni yoshlar qalb shuuriga singdirish har birimizning sharafli burchimizdir.

O'zbekistonda mavjud marosimlarga e'tibor beradigan bo'lsak, men hududiy dialektizmlarning milliy-madaniy xususiyatlaridagi leksik farqlanishini ochib bermoqchiman. Bunda o'zbek marosimlaridan nikoh to'yi bilan bog'liq atamalarning adabiy tildagi nomi va ular O'zbekistonning boshqa viloyatlarida boshqa nom bilan yuritilishiga diqqatni qaratish lozim. Ajdodlarimizning rasm-rusumlari, dunyoqarashi, ishonch-e'tiqodlari, turmush-tarzi va hayot haqidagi falsafiy qarashlari, asrlar bo'yi jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirgan

eng jozibali marosimlarimizdan biri ikki yoshni birlashtiruvchi - nikoh to'yidir. Bundan maqsad nikohni jamoatchilikka ma'lum qilish va jamoa bilan baham ko'rishidir. Nikoh to'yi tizimida bir qancha marosimlar mavjud: uy ko'rar (qiz ko'rar), sovchilik, sep taxlar, to'qqiz berish (to'qqiz tavoq), qiz oshi (qizlar majlisi), kelin tushirish, baqon tutish, yuz ochdi, kelin salom, chorlar kabi marosimlar va ular bilan bog'liq rasm-rusumlar. Ular hozirgacha saqlanib, amali qilinib kelinadi.

1. Kelin(kuyov) charlar - kelinning o'z ota-onasinikiga yoki kuyovning qaynata-qaynanasinikiga to'ydan keyin dastlabki borishiga bag'ishlangan chaqiriq. Bu marosim O'zbekistonning Xorazm viloyatida "guyav g'orar" yoki "guyav salom", Buxoroda "domot salom" (Buxoroda kuyov "domot" deb ataladi), Namanganda "uyga borar", Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax tomonlarda "chaqirdi".

2. Quda charlar - nikoh to'yidan keyin qudalar tarafidan kelin yoki kuyovning oilasi, qarindosh-urug'larini chaqirib beriladigan ziyofat. Bu marosimning hududiy farqliklari unchalik katta emas, xususan, Toshkent shahrida "quad chaqirdi" deyilsa, Xorazmning ba'zi tumanlarida "quda(o) choqrishmo" yoki "quda(o) donishar" shaklida uchraydi.

3. Uyko'rar - bo'lajak kelin qarindoshlarining kuyov bo'lmish yigitning uy-joyi, xonadoni bilan tanishish marosimi. Xorazm shevasidagi shakli - "eshikochar".

4. Qizoshi - nikoh to'yidan bir kun oldin qizning uyida dugonalari uchun beriladigan ziyofat. Ushbu marosimning Navoiy viloyatida "holva o'tirish", Qashqadaryoning ko'pchilik tumanlari "debocha", Surxondaryo "gashtak", Xorazmning Xiva tumani "xinyaqar" (bu



marosim bo'ladigan kuni kelin va uning dugonalari qo'liga xina suradi, bu hududda xina yoqish deb aytiladi va talaffuzda qisqarib shunday ko'rinishga kelib qolgan), shuningdek, O'zbekistonning turli mintaqalarida bu marosim "qizbazzm", "qizyig'in", "qiz vecher" kabi dialektlari mavjud.

5. Unashtiruv - nikoh to'yidan oldin yigit va qiz tomonning roziligini rasmiylashtirish, xalqqa ma'lum qilish uchun o'tkaziladigan marosim. Xorazmda "patir sindirish" va "patya to'y", Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan hududlarida "oqliq" va "non sindirar", boshqa ko'plab joylarda ham shunday nomlanib, "fotiha to'yi" shakli ham ko'p uchraydi.

6. Yuzochdi - nikoh to'yi marosimidan keyin kuyovning xonodona yaqin qarindoshlar va qo'ni-qo'shnilar ishtirokida kelinning yuzini ochishga bag'ishlab o'tkaziladigan marosimdir. O'zbekistonning turli mintaqalarida "Yuz ochdi", "Yuz ko'rsatar", "Bet ochar" yoki "ro'kushon" (tojikcha ro' - yuz, kushon - ochar) kabi nomlar bilan yuritiladi.

7. Kuyov chiqdi - Qo'qon shahridan boshqa hech bir viloyatda uchramaydigan, kelin va kuyovning nikoh to'yidan uch kun o'tib o'tkaziluvchi marosimdir.

8. To'qqiz taboq - "Alpomish" davridan bizlarga o'tib kelgan marosim hisoblanib, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida uchraydi.

E'tibor beradigan bo'lsak, bitta marosim har joyda har xil nomlangan, ammo bir viloyatda o'tkaziladigan marosim boshqasida uchramaydiganlari ham mavjud. Masalan, "kuyov o'tirsin", "kuyov chiqdi", "to'qqiz taboq", "yuzochar" va boshqa marosimlar ba'zida hududlarda nishonlanib, ba'zi hududlarda umuman nishonlanmaydi. Har bir urf-odat o'zida ma'lum bir maqsadni ko'zlaydi. Jumladan, "Yuzochar" marosimida yangalar yordamida kelinning yuziga oq ro'mol tashlagan holda yig'ilganlar huzuriga olib chiqilgan. Shundan so'ng xonadonning yosh bolasi tomonidan uning yuzidagi ro'mol yoki oq xarir parda mevali daraxtning shoxi bilan ochilib, uzoqroq joyga olib qochilgan. Kelinning yuzini ochishda mevali daraxtning shoxidan foydalanilishida mevali daraxtning serpushtlik xususiyati kelimga ham o'tsin, serfarzand bo'lsin, degan niyat mujassamlashgan. Qolaversa, yosh bola tomonidan kelinning yuzini ochilishi ham ushbu udumning bo'lg'usi oila serfarzand bo'lsin degan niyatda amalga oshiriladi. Shunday ekan, dialektlarda mavjud milliy-madaniy leksik vositalarni adabiy tilimizga o'zlashtirish maqsadga muvofiq. Chunki o'zbek milliy madaniyati shevalarda ham ufarib turadi va bu orqali o'zbek marosimlarining yana-da rang-barangligi hamda serma'noligiga hissa qo'shgan bo'lardik.

References:

1. Ashirov. A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. - Toshkent: A.Navoiy nomidagi o'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti,2007.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti,2006.